

2024
1(15)

IQTISODIYOT VA TURIZM
xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali

ЭКОНОМИКА И ТУРИЗМ
международный научно-
инновационный журнал

ECONOMICS AND TOURISM
international scientific and
innovative journal

ISSN 2181-2551
E-ISSN 2181-2561

ISSN 2181-2551



9 772181 255890

E-ISSN 2181-2561



9 772181 256001



ISSN 2181-2551
E-ISSN 2181-256X

"IQTISODIYOT VA TURIZM"
xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali

«ЭКОНОМИКА И ТУРИЗМ»
международный научно- инновационной журнал

"ECONOMICS AND TOURISM"
international scientific and innovative journal

№1(15) 2024

O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022 yil 30 apreldagi 315/5-son qarori bilan iqtisodiyot fanlari buyicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.



MUNDARIJA

Xamroyev Xalim Rozikovich. Turizm pedagogikasining fan sifatida o'ziga xos jihatlari.....	5
D.Sh.Yavmutov. Sanoatni yashil iqtisodiyot asosida barqaror rivojlantirish yo'llari	21
Бердиева Дилфуза Ахатовна. Бошқарув сервис компаниялари ўртасида ишончлилиқ рейтингини ташкил этишининг долзарб масалалари	29
Shadiyeva Gulnora Mardiyevna. Matters concerning the enhancement of entrepreneurship in the progression of the country's economy	37
Мардонов Баходир Бахронович. Хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантиришининг бозор механизмларини такомиллаштириш	44
Ашурова Нозиля Мурадовна. Совершенствование механизма организации государственных закупок в бюджетных организациях	53
Igamova Shaxinya Zikrilloyevna. Innovatika nuqtai-nazaridan qurilish materiallari ishlab chiqarishning tashkiliy-iqtisodiy o'ziga xosliklarini baholash.....	61
Fazilat Sapayeva. Mehnat resurslari bandligini ta'minlashda xizmat ko'rsatish sohalarining o'rni	71
Bibutova Shakhlo Sadullayevna, Бибутова Шахло Саъдуллаевна. Основные направления совершенствования системы управления химической отрасли в Республике Узбекистан	78
Xaydarova Maxasti Maxmudovna. Raqamli iqtisodiyotning mohiyati va uning buxgalteriya hisobi tizimiga ta'siri.....	86
G'aniyeva Dilnoza Baxriddin qizi. Tashkilotlarda xodimlarni o'qitish va rivojlantirish dasturlarining xodimlar samaradorligiga ta'siri	95
Kuldashev Sherzod Alimardonovich. Ta'lim xizmatlari bozorida oliy ta'lim muassasalari raqobat ustunligini ta'minlash omillari va ko'rsatkichlari	105
Abdullayev Bunyod O'tkirovich. Surxondaryo viloyatida ekoturizm samaradorligini ekonometrik modellashtirish	116
Махмудов Азамат Нормурадович. Ахборот ва интернет технологиялари соҳасидаги ташкилотларда таннархни ҳисобга олиш ва унинг услубий асосларини такомиллаштириш.....	128
Ruziyeva Maxbuba Tulkinovna. Вухоро viloyatida gastronomik hamda agroturizm imkoniyatlari tahlili	135
Рахимов Т.Ж. Худуд иқтисодий тизимини барқарор ривожлантиришининг иқтисодий-экологик механизмлари	143
D.Sh.Yavmutov. Mintaqaning barqaror rivojlanishini ta'minlashda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini samarali tashkil etish	150

*D.Sh.Yavmutov***Buxoro davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasi dotsenti, i.f.n., O‘zbekiston.**

MINTAQANING BARQAROR RIVOJLANISHINI TA’MINLASHDA QISHLOQ XO‘JALIK ISHLAB CHIQRISHINI SAMARALI TASHKIL ETISH

Annotasiya. Maqolada mintaqaning barqaror rivojlanishini ta’minlashda qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishini samarali tashkil etish masalasi tadqiq qilingan. Yashil iqtisodiyotga o‘tish sharoitida qishloq xo‘jaligida tabiiy resurslardan samarali foydalanish va ularni oqilona muhofaza qilish mintaqani barqaror rivojlantirishda muhim jihat ekanligi asoslangan. O‘zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyotga o‘tishda mintaqalar qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishning eng birlamchi va maqbul 4 ta yo‘nalishi ilmiy asoslangan hamda tavsiya etilgan.

Abstact. The article considers the issue of effective organization of agricultural production to ensure sustainable development of the region. It is based on the fact that the effective use of natural resources in agriculture and their rational protection are an important aspect of sustainable development of the region in the context of the transition to a green economy. Scientifically substantiated and recommended are 4 most basic and optimal directions of sustainable development of regional agriculture in the transition to a green economy in the context of Uzbekistan.

Аннотация. В статье рассматривается вопрос эффективной организации сельскохозяйственного производства для обеспечения устойчивого развития региона. Основано что, эффективное использование природных ресурсов в сельском хозяйстве и их рациональная охрана являются важным аспектом устойчивого развития региона в условиях перехода к зеленой экономике. Научно обоснованы и рекомендованы 4 наиболее основных и оптимальных направления устойчивого развития регионального сельского хозяйства при переходе к зеленой экономике в условиях Узбекистана.

Kalit so‘zlar. Barqaror qishloq xo‘jaligi, dehqonchilik, chorvachilik, mintaqaviy rivojlanish, barqaror rivojlanish, mintaqa, yerdan foydalanish, suv resurslari, oziq-ovqat xavfsizligi, mahsulot.

Key words: Sustainable agriculture, farming, livestock, regional development, sustainable development, region, land use, water resources, food security, product.

Ключевые слова: Устойчивое сельское хозяйство, фермерство, животноводство, региональное развитие, устойчивое развитие, регион, землепользование, водные ресурсы, продовольственная безопасность, продукт.

Kirish. XX asrning oxirida va XXI asrning boshida qishloq xo‘jaligini yuritishda rivojlangan mamlakatlarda sanoat usulida amalga oshirilgan bo‘lsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda barqaror bo‘lmagan usulda rivojlangan. Hozirda ham ko‘pgina mamlakatlarda qishloq xo‘jaligini yuritishning ushbu usullari amal qiladi. Sanoat usulida qishloq xo‘jaligini yuritishning avfal tomonlaridan eng muhimi – bunda ko‘plab miqdorda mahsulot yetishtirilganligi bois, bu mahsulotlarning narxi past bo‘lgan. Biroq hozirda tabiiy resurslar tobora kamayib borayotgan, atrof muhit muhofazasi muammosi tobora keskinlashayotgan, insonlar nisbatan sog‘lom ovqatlanish tarziga o‘tayotgan davrda qishloq xo‘jaligi yuritishning ushbu usuli davr talabiga javob bera olmay qolmoqda. Chunki sanoatlashgan usuldagi qishloq xo‘jaligi yuritishda tuproqning, suvning va atmosferaning ifloslanishi, o‘simliklarning turli ximiyaviy vositalar bilan ishlanishi natijasida mahsulotlarning ekologik sof emasligi, atrof-muhitning ifloslanishi, issiqxona gazlarining ko‘payishi kabi muammolar yuzaga keladi. Qishloq xo‘jaligini

nobarqaror usulda rivojlantirish atrof muhit va tabiatga har yili o'rtacha 3 trln. AQSh dollari miqdorda zarar yetkazadi¹.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Iqtisodiy adabiyatlarda yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish masalalarining tadqiqoti uncha uzoq bo'lmagan davrni o'z ichiga oladi. Uzoq xorijiy olimlar tomonidan ushbu masalalar tadqiqi nibatan oldinroq boshlangan bo'lsada, yaqin xorij hamda mahalliy olimlar tomonidan ushbu masalalar tadqiqi yaqin o'tmishdan boshlanganini ko'ramiz.

Yeva-Luz Texada-Guterres, Zofiya Koloshko-Xomentovska, Mariantonietta Fiore va Alessiya Spadalar o'zlarining "Mintaqaviy jihatdan ekologik barqaror rivojlanish: Polsha misolida qiziqarli tajriba" nomli tadqiqot ishida Polshada hududiy jihatdan ekologik rivojlanishda barqarorlikka erishish tajribasi bayon qilingan².

I.Buzko, Ye.Varatanova, I.Trunina, I.Xovrakning "Yevropa Ittifoqida mintaqaviy barqaror rivojlanishning nazariy jihatlari" nomli maqolasida Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida hududiy barqaror rivojlanish tendensiyalari tadqiq qilingan³.

K.Klement, M.Xansen, K.Bredlining "Mintaqaviy barqaror rivojlanish: Shimoliy mamlakatlar tajribasini o'rganish" nomli tadqiqotida Yevropa Ittifoqining shimoliy mamlakatlari – Daniya, Shvesiya va Norvegiya misolida mintaqaviy barqaror rivojlanish xususiyatlari ochib berilgan⁴.

V.A. Vasilenkoning "Mintaqalarning barqaror rivojlanishi: yondoshuvlar va tamoyillar" nomli monografiyasida⁵ barqaror rivojlanishning kontseptual asoslarini shakllantirish jarayoni va bu boradagi ilmiy yondoshuvlar tahlil qilingan. Ekologik barqaror rivojlanish yo'liga o'tishning asosiy tamoyillari ko'rib chiqilgan. Integral ilmiy yo'nalish hisoblanmish - atrof-muhitga ta'sirni baholash (strategik ekologik baholash) ning shakllanishi va shakllanish tendensiyalari ko'rsatilgan. Ekologik barqaror rivojlanish muammolari va ularni hal qilish amaliyoti ko'rib chiqilgan. Suv xo'jaligi muammolariga, jumladan, Sibir daryolari oqimining bir qismini janubga o'tkazishga alohida e'tibor qaratilgan.

D.S.Xayrulovning "Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining barqarorlik muammolari" nomli tadqiqot ishida mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy barqaror rivojlanishining ilmiy yondoshuvlari va qarashlar tahlil qilingan. Mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiya jarayonlarida muhim omil sifatida mintaqaviy rivojlanish omili asoslangan⁶.

I.X. Samandarzoda va M.N.Xalikova "Tojikiston qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish" nomli maqolasida qishloq xo'jaligi rivojiga ta'sir etuvchi asosiy omillar, qishloq xo'jaligini rivojlantirishning ijtimoiy muammolari, umuman, Tojikistonda qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishning muhim tarkibiy qismlari sifatida ko'rsatilgan, shuningdek, ushbu muammolarni hal qilish yo'llari muhokama qilinadi⁷.

"O'zbekiston mintaqalarini barqaror rivojlantirishning iqtisodiy-ekologik jihatlari" maqolasida **M.T. Adilova** "*Barqaror rivojlanish*" konsepsiyasining mazmun-mohiyati, mintaqalarni barqaror rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari, mintaqalar ekologik holatiga atmosfera havosi ifloslanishi ta'siri va ularni ekologik holati bo'yicha zonalarga ajratish,

¹ Руководство по устойчивому ведению сельского хозяйства для новичков.

<https://www.unep.org/ru/novosti-i-istorii/istoriya/rukovodstvo-po-ustoychivomu-vedeniyu-selskogo-khozyaystva-dlya-novichkov>.

² Техада-Гутьеррес Е., Колошко-Хоментовска З., Фиоре М., Спада А.. Устойчивое экологическое развитие с региональной точки зрения –интересный пример Польши. <https://www.mdpi.com/2071-1050/15/5/4368>.

³ Бuzko И., Вартанова Е., Трунина И., Ховрак И. Теоретические аспекты региональной устойчивости развитие в ЕС и Украине. https://www.shsconferences.org/articles/shsconf/pdf/2019/02/shsconf_ies2018_01001.pdf.

⁴ Клемент К., Хансен М., Бредли К. Устойчивое региональное развитие: Изучение опыта Северных стран. <https://www.diva-portal.org/smash/get/diva2:700461/FULLTEXT01.pdf>.

⁵ Василенко В.А. Устойчивое развитие регионов: подходы и принципы. http://lib.ieie.nsc.ru/docs/2008/-Vasilenko_2008Ustojchivoie_Razvitie_Regionov.pdf.

⁶ Хайруллоев Д.С., Еремеев Л.М. Проблемы устойчивости социально-экономического развития региона // Вестник Казанского государственного аграрного университета. – Казань. – 2012. – №1. – С.73-76. https://kpfu.ru/docs/F1374583682/6_prob_st.pdf.

⁷ Самандарзода И.Х., Халикова М.Н. Устойчивое развитие сельского хозяйства республики Таджикистан. <https://ojs.qmii.uz/index.php/ej/article/view/382>.

ekologik jihatlarni hisobga olgan holda mintaqalarni barqaror rivojlantirish strategiyasini shakllantirish va "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish masalalari yoritilgan. Ekologik jihatlarni hisobga olgan holda mintaqalarni barqaror rivojlantirish strategiyasini shakllantirish bo'yicha fikrlarni keltirgan¹.

S. T. Iskandarov va G. Sadikovalar o'zlarining "Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari" maqolasida qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish orqali oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabni qondirish, innovatsion va kreativ g'oyalarni shakllantirish orqali qishloq xo'jaligini isloh qilish, bozor munosabatlarini keng joriy qilish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi, qayta ishlovchi va sotuvchi sub'ektlar o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asosini mustahkamlash, sohaga investitsiyalarni jalb qilish, resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish masalalari tadqiq qilishgan².

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy jarayonlarini o'rganishning ilmiy usullari – tizimli tahlil, guruhlash, umumlashtirish, kuzatish, tahlilning mantiqiy va taqqoslama usullari, abstrakt-mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil, matematik modellashtirish, statistik tahlil kabi usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Aksariyat mamlakatlar yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy qilgan holda iqtisodiyotning qator tarmoqlarida, jumladan, qishloq xo'jaligida ham barqaror xo'jalik yuritish usullarini tanlashmoqda.

Barqaror qishloq xo'jaligi atamasi dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlarini intesiv va integrallashgan usullarda kelgusida quyidagi masalalarni yechishga yo'naltirilganligi tushuniladi:

- Insonlarning oziq-ovqatga bo'lgan talabini qondirish;
- Qishloq xo'jaligini atrof muhitga zarar yetkazmasdan olib borish;
- Qishloq xo'jaligi resurslarini intesiv usulda samarali foydalanish;
- Qishloq xo'jaligi korxonalarini faoliyatini qo'llab-quvvatlash;
- Fermerlar va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga ko'maklashish;
- Qishloq joylarda hayot tarzini yaxshilash.

Barqaror qishloq xo'jaligi hozirda ko'plab hududlar, mamlakatlar tomonidan kelajak rivojlanish modeli sifatida tanlanmoqda va o'zlarining bu boradagi strategiyalarini ishlab chiqishmoqda. Muallif ham O'zbekistonda mintaqalarda yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishning maqbul yo'li sifatida barqaror qishloq xo'jaligini tavsiya qiladi.

Barqaror qishloq xo'jaligini yuritishda mahsulotlarga sarflanayotgan energiya sarfi 56 foizga kamayadi, bir gektar maydonga nisbatan issiqxona gazlarining chiqishi 64 foizga pasayadi, maydon birligida bioxilma-xillik ortadi. BMTning oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi bo'yicha tashkiloti (FAO) ma'lumotlari bo'yicha chorva hisobiga yillik dunyo issiqxona gazlarining 15 foiz miqdori to'g'ri keladi. Bu raqam dunyo avtomobillari, yuk tashuvchi kemalar va samalyotlaridan chiqayotgan issiqxona gazlari chiqindisi miqdoriga teng³.

Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish asosida qishloq xo'jaligining transformatsiyasi turadi. Qishloq xo'jaligi transformatsiyasi masalalari 19-20 asrlardan boshlangan bo'lsada, hozirgi davrda transformatsiyaning asosida yashil iqtisodiyotga o'tish masalalari turadi. Dunyo mamlakatlarining oziq ovqatga bo'lgan o'sib borayotgan talabini qishloq xo'jaligini transformatsiyasi orqali qondirishning texnik imkoniyatlari mavjud. Muallif O'zbekistonda yuzaga kelgan vaziyatni inobatga olgan holda, yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida mintaqalar qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishning eng birlamchi va maqbul yo'nalishlari sifatida quyidagi 4 ta yo'nalishni samarali tashkil etish va amalga oshirishni tavsiya qiladi:

¹ Adilova M.T. O'zbekiston mintaqalarini barqaror rivojlantirishning iqtisodiy-ekologik jihatlari. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/2023/06/06/ozbekiston-mintaqalarini-barqaror-rivojlantirishning-iqtisodiy-ekologik-jihatlari>.

² Iskandarov S. T., Sadikova G.. "Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari". <https://dspace.umsida.ac.id/items/149f489c-95a9-48d4-8fcf-f62b7352a8b8>.

³ Руководство по устойчивому ведению сельского хозяйства для новичков. <https://www.unep.org/ru/novosti-i-istorii/istoriya/rukovodstvo-po-ustoychivomu-vedeniyu-selskogo-khozyaystva-dlya-novichkov>.

Birinchiidan, dunyo aholisining ovqatlanish ratsioni tarkibi o'zgarib borayotgan, kun sayin sog'lom turmush tarzi keng ommalashib borayotgan sharoitda oziq ovqat xavfsizligi va ekologik sof qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'rsatadi.

Ikkinchiidan, an'anaviy, monokultura usulidagi qishloq xo'jaligi yuritishdan, chorvachilik bilan muvozanatlashgan, tuproq va ekosistemalarning barqaror boshqaruviga, almashlab ekishga, bioxilma-xillikka asoslangan, innovatsion qishloq xo'jaligiga tez va keng qamrovli tarzda o'tish talab etiladi. Ayrim davlatlar hozirda qishloq xo'jaligini regenerativ usullarda rivojlantirishga o'tishmoqda.

Uchinchiidan, yerdan foydalanishni oqilona tashkil etish talab etiladi. Tuproq muhofazasi orqali yerdan foydalanishni samarali tashkil maqsad qilinadi. O'zbekiston va uning mintaqalari sharoitida yerdan samarali foydalanish, ularni muhofaza qilish, unumdorligini oshirishning, shuningdek, iqlim o'zgarishi salbiy ta'sirlarining oldini olishda eng muhim omil sanaladi. Tabiatni muhofaza qilish bo'yicha Global kelishuvda Yer sharining 30 foiz maydoni muhofaza hududi sifatida, yana 20 foizi iqlimni barqaror saqlashga ko'maklashish maydoni sifatida saqlash kelishilgan.

To'rtinchiidan, mamlakatda suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni keng va tezkor joriy qilish. Chunki agrar tarmoq va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat tarmoqlari birgalikda jahonda eng katta suv iste'molchi tarmoq sanaladi.

Jahon agar tarmog'i 6 trln. AQSh dollar miqdorida mahsulot ishlab chiqarishi bilan birga, jahon suv iste'molining 70 foizini o'ziga jamlagan holda kelgusida suv tanqisligi riskiga eng ko'p duchor bo'luvchi soha sanaladi¹.

Muallif 4- yo'nalish sifatida suvdan oqilona foydalanishni tavsiya qilishiga yana bir muhim sabab, O'zbekistonda qishloq xo'jaligi suv iste'molining 80 foizdan ortig'i to'g'ri keladi va suv eng ko'p isrof bo'layotgan, samarasiz ishlatilayotgan soha sanaladi. Shu sababdan qishloq xo'jaligini, shu orqali mintqaning barqaror rivojlanishini ta'minlashda suv resurslarining samarali va oqilona ishlatilishi O'zbekiston Respublikasi, ayniqsa, suv tanqisligi kuchayib borayotgan Buxoro viloyatida asosiy manba sifatida tavsiya qilinadi.

Jahon suv resurslari instituti ma'lumotlariga ko'ra O'zbekiston suv stressiga moyil bo'lgan 25 ta davlatlar qatoriga kiradi. 2022 yilda suv stressi indeksi bo'yicha O'zbekiston 3,82 ko'rsatkich bilan 25 o'rinda turgan. Dunyo aholisining suv iste'moli o'rtacha aholi jon boshiga 24600 m³/kishiga teng bo'lgan sharoitida, O'zbekistonda bu raqam 1447 m³/kishiga teng. Bu raqam 2030 yilga borib 1075 m³/kishiga tushishi prognoz qilingan².

Muallif mintaqalarda suvdan foydalanishni oqilona va samarali tashkil etishning 2 ta asosiy yo'nalishini taklif qiladi: 1) barcha hududlarda to'liq ravishda suvni tejoychi texnologiyalarni joriy qilish va ularni samarali ishlatish; 2) suv ishlatilishi natijasida yuzaga kelayotgan chiqindilar – oqava suvlarni to'liq qayta ishlashni joriy qilish, hududda suv iste'molining yopiq siklini shakllantirish. Har ikkala yo'nalishda ham suvdan foydalanishda noan'anaviy va innovatsion usullar va texnologiyalardan foydalanish shart.

O'zbekistonda birinchi yo'nalishda qator ishlar amalga oshirilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 1 martdagi PQ-144-sonli "Qishloq xo'jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan hududlarda suvni tejoychi texnologiyalarni joriy qilishning parametrlari va yo'nalishlari ishlab chiqilgan hamda joriy qilib borilmoqda. 2017 yilda respublikada suvni tejoychi texnologiyalar joriy qilingan maydonlar jami sug'oriiladigan yer maydonlarining ulushi 3 foizni tashkil qilgan bo'lsa, hozirda 4,3 mln gektar sug'oriiladigan maydonlarning 1,2 mln gektarida, ya'ni ularning ulushi 28 foizga teng maydonlarda bunday texnologiyalar qo'llanmoqda. Suv tejoychi texnologiyalardan eng samarali joriy qilayotgan hududlar Xorazm, Navoiy, Buxoro, Samarqand, Farg'ona, Andijon va Jizzax viloyatlari bo'lsa, eng kam joriy qilingan hududlar –

¹ Д. Юинг-Чоу. Управление водными ресурсами станет одним из важнейших трендов в сфере продовольствия в 2024 году. <https://www.forbes.com/sites/daphneewingchow/2023/10/29/water-stewardship-will-be-one-of-the-biggest-food-trends-in-2024/>.

² <https://thewaterinstitute.org/>.

Qashqadaryo, Surxondaryo, Toshkent, Sirdaryo viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasidir (1-jadval)

1-jadval.

O‘zbekiston Respublikasi mintaqalarida suvni tejovchi texnologiyalarning joriy qilinganligi, 2023 yil

№	Hudud nomi	Maydon, ga his.	Maydoni, % his.
1	Xorazm viloyati	139042	52
2	Navoiy viloyati	50425	41
3	Jizzax viloyati	109416	36
4	Buxoro viloyati	95054	35
5	Andijon viloyati	91857	34
6	Farg‘ona viloyati	116154	32
7	Samarqand viloyati	115706	30
8	Namangan viloyati	81949	29
9	Surxondaryo viloyati	79430	24
10	Sirdaryo viloyati	67001	23
11	Toshkent viloyati	89468	22
12	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	110683	22
13	Qashqadaryo viloyati	82052	16

O‘zbekistonda suvdan noan‘anaviy, innovatsion usullarda foydalanish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Ayniqsa, sanoat va qishloq xo‘jaligida yuzaga kelayotgan oqava suvlarni biologik qayta ishlab, ulardan ichimlik va texnik suv olish bo‘yicha respublika olimlari qator ishlarni amalga oshirib, ilmiy natijalarga erishishgan va ularning natijalaridan amaliyotda foydalanilmoqda.

Buxoro viloyatidagi sanot va ishlab chiqarish korxonalaridan hosil bo‘ladigan oqava suvlarni mikroorganizmlar, tuban va yuksak suv o‘simliklari yordamida laboratoriya va yarim ishlab chiqarish sharoitida tozalash S.B. Bo‘riev, Yo.Q. Hayitov, N.E. Rashidov, M.I. Mustafaevalar tomonidan tahlil qilib kelingan. Buxoro viloyatida yuksak suv o‘simliklarini o‘rganish borasida H.Q. Esanov tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Tadqiqotlar natijasida mazkur hududda 11 tur yuksak suv o‘simliklari aniqlangan¹.

Yuqoridagi tajribalar va ishlab chiqilgan ilmiy takliflarni inobata olgan holda muallif O‘zbekiston mintqalarida suvdan samarali foydalanishning maqbul varianti sifatida xo‘jaliklarda suvning vaylanma siklli foydalanish usulini joriy qilishni, bunda viloyatlar kesimida suvni qayta ishlovchi xo‘jaliklar tashkil etishni taklif qiladi. Bunda oqava suvlar foydalanib bo‘lingach, maxsus rezervuarlarda biologik usulda tozalanadi va texnik suv sifatida sanoatda foydalanish mumkin, yoki qo‘shimchasiga kimyoviy usulda tozalanib, qayta ishlov berilgach, ichimlik suvi sifatida ham foydalanish mumkin.

Bunday usulning iqtisodiy samaradorligi ham toza sug‘orish suvi yoki ichimlik suvini iste‘moli xarajatlaridan dastlabki hisob kitobga ko‘ra 1,5-1,7 barobar bo‘lishi taxmin qilinmoqda, biroq bu holatni kelgusida suv tanisligining umumiy ekologik va ijtimoiy yo‘qotishi oldida samarali hisoblash mumkin.

Oziq-ovqat xavfsizligi masalasini yashil iqtisodiyotga o‘tish sharoitida ikkita yo‘nalishda tushiniladi: birinchidan, hududlarning oziq-ovqat bilan ta‘minlanishining xavfsizligini ta‘minlash, ikkinchidan, insonlarning sog‘lom turmush tarzi talablari ortib borayotganligi fonida ekologik va tibbiy sog‘lom mahsulotlar bilan ta‘minlanishi masalasi talqin qilinadi.

Yashil iqtisodiyotga o‘tish tabiiy kapitalning muhimligini va uning dolzarbligini namoyon qiladi. Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarining ekologik softligi talabi bu mahsulotlarini

¹ Yuldoshev L.T. Ishlab chiqarish va qishloq xo‘jalik korxonalarida oqava suvlarini tozalashning biotexnologik asoslari. Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. Buxoro 2022. – 125 b.

yetishtirish va qayta ishlash jarayonlarining, butun ishlab chiqarish zanjirining ekologik sofligini talab qiladi.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligini samarali, barqaror rivojlantirish, sohada ishlab chiqarishini oqilona tashkil etish mamlakatdagi 2 ta eng asosiy muammolarni yechishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Birinchi masala –mintaqalarida qishloq xo'jaligini yanada samarali rivojlantirish asosida kambag'allikni kamaytirish, ikkinchi masala – oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash. Respublika mintaqalarida iqtisodiyot tarmoqlarini, jumladan, qishloq xo'jaligini «yashil iqtisodiyot» tamoyillari asosida shakllantirish va rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud.

Mamlakatda so'nggi yillarda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Olib borilayotgan islohotlar natijasida 2019-2023 yillar doirasida kambag'allikning xalqaro chegarasidan past ko'rsatkichlarda, ya'ni kuniga 3,2 AQSh dollari daromad qiladigan aholi soni 26,3 %dan 25,0% ga tushdi, kuniga 1,9 AQSh dollari daromad qiladigan aholi soni esa 5,9 %dan 5,4 %ga tushdi. 2021 yildan boshlab respublikamizda kambag'allikning milliy darajasi minimal iste'mol xarajatlari bazasida hisoblanadi. Bu ko'rsatkich respublikamizda 2021 yil yakuni bo'yicha 17%, 2022 yil yakuni bo'yicha 14%, 2023 yil yakuni bo'yicha 11 % ni tashkil etdi. 2024 yil yakuni bo'yicha bu raqamni 10 % ga tushirish rejalashtirilgan va tegishli tadbirlar amalga oshirilmoqda (4.3.1-rasm). Oziq-ovqat mahsulotlari iste'moli minimal darajasi metodologiyasi bo'yicha hisoblansa, mamlakatda kambag'allik darajasi 11 %ni tashkil etmoqda, bu raqam shahar joylarda – 8,9 %, qishloq joylarda – 14,0% ni tashkil etdi.

O'zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni barqarorlashtirishda tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Paxta ekinidan bo'shagan maydonlarda ko'p yillik ekinlar, jumladan, bog'lar va uzumzorlar barpo etilmoqda. 2016 yilda 349200 ga maydonda meva va uzum (jami ekin maydonlarining 9,4%i) yetishtirilgan bo'lsa, 2019 yilda bunday ekinlar 456800 ga, 2021 yilda 495700 ga maydonda yetishtirilgan. Shu bilan birga, ko'p yillik kam hosilli bog'lar yuqori hosil beruvchi, intensiv bog'larga almashtirilmoqda. Mazkur o'zgarishlar mamlakatda oziq-ovqat sohasida mustahkam asosni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Oziq-ovqat sohasida islohotlarni amalga oshirishda, qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish va qayta ishlash texnologiyalarini ham takomillashtirishga katta e'tibor berilmoqda. 2020-2021 yillarda respublikada paxtachilik va meva-sabzavotchilik yo'nalishida suvni tejoychi texnologiyalarni joriy qilishda qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, respublika byudjetidan paxtachilikda 2019 yilda – 120 mlrd so'm, 2020 yilda – 132 mlrd so'm, 2021 yilda – 199 mlrd so'm, meva-sabzavotchilikda 2020-2021 yillarda 90 mlrd so'm mablag' suvni tejoychi texnologiyalarni joriy qilishga yo'naltirilgan.

Shuning bilan birga, mazkur yo'nalishda huquqiy asoslar ham takomillashtirib borildi. Jumladan, intensiiv bog'larga suv tejoychi va boshqa texnologiyalarni investitsiya paketiga qo'shish talablari kiritildi. Olib borilgan ushbu tadbirlar natijasida suv tejoychi texnologiyalar qo'llangan sug'oriladigan yerlar maydoni 2017 yildagi 3 % dan 2024 yilda 28 % gacha oshdi.

Global Food Security Index (GFSI) reytingida O'zbekiston 2019-2021 yillarda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha eng tez rivojlangan top 10 davlatlar ro'yxatida 1-o'rinni egalladi. Ushbu ro'yxatda mamlakat 2019 yildagi 85-o'ringandan 2021 yilda 75 o'ringa ko'tarildi va o'z reytingini 6,1 ballga yaxshilab olgan (2- jadval).

2-jadval¹

Global Food Security Index (GFSI) bo'yicha 2019-2022 yillarda oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha eng yuqori rivojlanishga erishgan mamlakatlar

Egallagan o'rni	Mamlakat	2019 yil	2022 yil	Farf
73	O'zbekiston	51,4	57,5	+ 6,1
= 41	Saudlar Arabistoni	65,0	69,9	+ 4,9
29	Bolgariya	68,2	73,0	+ 4,8
88	Ruanda	47,0	50,6	+ 3,6
58	Gvatemala	59,7	62,8	+ 3,1

¹ <https://impact.economist.com/sustainability/project/food-security-index> ma'lumotlari asosida tuzildi

=108	Madagaskar	37,6	40,6	+ 3,0
54	Argentina	62,3	64,8	+ 2,5
18	Kosta Rika	74,9	77,4	+ 2,5
71	Ukraina	55,5	57,9	+ 2,4
4	Fransiya	77,9	80,2	+ 2,3

O‘zbekistonda, jumladan, Buxoro viloyatida qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish uchun quyidagilar taklif qilinadi:

- past hosilli yerlarda paxta va bug‘doy yetishtirishni muntazam kamaytirib borish va bu ekinlardan bo‘shagan yerlarga sabzavot va ko‘p yillik ekinlar ekishni joriy qilish;

- eski bog‘lar va uzumzorlar o‘rniga bosqichma-bosqich ravishda bo‘shagan yerlarda yuqori agrotexnologik tadbirlar o‘tkazishga asoslangan intensiv bog‘lar, oziq-ovqat ekinlari tashkil etish. Bunda intensiv bog‘lar ulushini 2030 yilgacha 50 %ga oshirish oziq-ovqat ekinlari hosildorligini kamida 3-4 martaga ko‘paytiradi;

- qishloq xo‘jaligi yerlari unumdorligini oshirganlik uchun rag‘batlantirish tizimlarini joriy qilish;

- tomorqa xo‘jaligi va qishloq xo‘jaligining kichik ishlab chiqaruvchilarining ishlab chiqarish hamda daromadlilik quvvatini oshirish maqsadida ularga moliyaviy va boshqa resurslar, ichki va tashqi bozorlar, turli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;

- har yili 200 ming ga yer maydonida ekinlarni sug‘orishning resurstejamkor texnologiyalarini joriy qilish orqali sug‘orish suvi va qishloq xo‘jalik ekinlaridan foydalanish samaradorligini bir necha bor oshiradi;

- biologik xilma-xillikka tushayotgan yukni kamaytirish, uning komponentlaridan hosildor landshaftlarda keng foydalanish;

- qishloq aholisining daromadlarini oshirish va butun aholining sog‘lom ovqatlanish tizimi uchun iqtisodiy imkoniyatlarini qulaylashtirish.

Xulosa qilib ta’kidlaymizki, qishloq xo‘jaligi mamlakatda va uning aksariyat mintaqalarida iqtisodiyotning yetakchi tarmog‘i sifatida muhim ahamiyatga ega, jumladan, yashil iqtisodiyotga o‘tishda ham. Bunda qishloq xo‘jaligi ko‘pgina tarmoqlarning xom ashyo manbai, yo‘ldosh tarmog‘i sifatida iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini, mamlakat hududlarining yashil iqtisodiyotga o‘tishi yo‘nalishlarini, uning darajasini, tezligini belgilab berishda muhim o‘rin tutadi.

Xulosa shuki, mintaqalarga yashil iqtisodiyotni joriy qilishda agrar tarmoq lokomotiv sifatida xizmat qiladi, boshqa tarmoqlarning ham yashillashuvini belgilab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- Adilova M.T. O‘zbekiston mintaqalarini barqaror rivojlantirishning iqtisodiy-ekologik jihatlari. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/2023/06/06/ozbekiston-mintaqalarini-barqaror-rivojlantirishning-iqtisodiy-ekologik-jihatlari>.
- Буздо И., Вартанова Е., Трунина И., Ховрак И. Теоретические аспекты региональной устойчивости развитие в ЕС и Украине. https://www.shsconferences.org/articles/shsconf/pdf/2019/02/shsconf_ies2018_01001.pdf.
- Burxonov S., Khamidov O., Yavmutov D. Buxoro viloyatida sug‘oriladigan yerlardan samarali foydalanish muammolari va ularni yaxshilash yo‘llari //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2023. – Т. 41. – №. 41.
- Бурхонов, Ж. Х. Ў., & Явмутов, Д. Ш. (2022). Экологизация экономики возможности и перспективы развития «зеленой» экономики в Узбекистане. *Science and Education*, 3(6), 114-118.
- Василенко В.А. Устойчивое развитие регионов: подходы и принципы. http://lib.ieie.nsc.ru/docs/2008/Vasilenko-Ustojchivoje_Razvitie_Regionov.pdf.
- Dilshod, Yavmutov, and Burkhonov Sardor. "O ‘ZBEKISTONDA ‘YASHIL’ IQTISODIYOTGA O ‘TISHI: ISTIQBOL YO ‘NALISHLAR VA USTUVOR VAZIFALAR." *Journal of new century innovations* 10.2 (2022): 159-168.

7. Iskandarov S. T., Sadikova G. "Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari". <https://dspace.umsida.ac.id/items/149f489c-95a9-48d4-8fcf-f62b7352a8b8>.
8. Karimov D.M. Respublika hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tahlil qilishda reyting baholash tizimining mohiyati va afzalliklari. https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/23_Karimov_D_pdf
9. Клемент К., Хансен М., Брэдли К. Устойчивое региональное развитие: Изучение опыта Северных стран. <https://www.diva-portal.org/smash/get/diva2:700461/FULLTEXT01.pdf>.
10. Руководство по устойчивому ведению сельского хозяйства для новичков. <https://www.unep.org/ru/novosti-i-istorii/istoriya/rukovodstvo-po-ustoychivomu-vedeniyu-selskogo-khozyaystva-dlya-novichkov>.
11. Sayfiyev, Ibrokhim, and Yavmutov Dilshod Shoyimardonkulovich. "Анализ Степени Озеленения Отраслей Экономики Бухарской Области." *Miasto Przyszłości* 51 (2024): 120-123.
12. Сайфиев, И. и Явмутов, Д.С. (2024). Переход к зеленой экономике в ЕС: анализ политических и экономических сдвигов. *ЕВРОПЕЙСКИЙ ЖУРНАЛ БИЗНЕС-СТАРТАПОВ И ОТКРЫТОГО ОБЩЕСТВА*, 4 (8), 1-4.
13. Самандарзода И.Х., Халикова М.Н. Устойчивое развитие сельского хозяйства республики Таджикистан. <https://ojs.qmii.uz/index.php/ej/article/view/382>.
14. Техада-Гутьеррес Е., Колошко-Хоментовска З., Фиоре М., Спада А.. Устойчивое экологическое развитие с региональной точки зрения –интересный пример Польши. <https://www.mdpi.com/2071-1050/15/5/4368>.
15. Хайруллоев Д.С., Еремеев Л.М. Проблемы устойчивости социально-экономического развития региона // Вестник Казанского государственного аграрного университета. – Казань. – 2012. – №1. – С.73-76. https://kpfu.ru/docs/F1374583682/6_prob_st.pdf.
16. Shoimardonkulovich, Yavmutov Dilshod, and Sharapova Nigina Kadirovna. "GREEN FACTOR OF ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN." *Gospodarka i Innowacje*. 23 (2022): 102-104.
17. Shoyimardonqulovich, Y. D., & Aminjon, U. (2024). GLOBALASHUV SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI TARMOQLARINI RAQAMLASHTIRISH. *Science and innovation*, 3(Special Issue 42), 55-58.
18. Юлдошева, Б. М. (2021). ЭКОЛОГИК МУАММОЛАР: ХАЛҚАРО ҲАМЖАМИЯТ МУНОСАБАТИ ВА ТАРИХИЙ ЁНДАШУВ: Юлдошева Бибиражаб Миржоновна Бухоро давлат университети докторанти. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (5).
19. Юлдошева, Б. М. (2022). ПАХТА МОНОПОЛИЯСИНИНГ БУХОРО ШАҲАР АТРОФ МУҲИТИГА ТАЪСИРИ (XX АСР ДАВОМИДА): Юлдошева Бибиражаб Миржоновна, Бухоро давлат университети таянч докторанти. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (5), 46-51.
20. Yuldosheva B. The current state of green spaces and their historical changes in Bukhara City //BIO Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 84. – С. 01039.
21. Юинг-Чоу Д.. Управление водными ресурсами станет одним из важнейших трендов в сфере продовольствия в 2024 году. <https://www.forbes.com/sites/daphneewingchow/2023/10/29/water-stewardship-will-be-one-of-the-biggest-food-trends-in-2024/>.
22. Yuldoshev L.T. Ishlab chiqarish va qishloq xo'jalik korxonalari oqava suvlarini tozalashning biotexnologik asoslari. Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. Buxoro 2022. – 125 b.
23. Явмутов, Д. Ш. (2021). ПРОБЛЕМЫ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОРОШАЕМЫХ ЗЕМЕЛЬ БУХАРСКОГО ВИЛОЯТА И ПУТИ ИХ УЛУЧШЕНИЯ. " *Экономика и туризм*" международный научно-инновационной журнал, 2(2).
24. Yavmutov D. Sh., Burxonov J., Karimova K. YaSHIL IQTISODIYOTNI QO'LLASHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI VA UNI O'ZBEKISTONDA JORIY QILISH IMKONIYATLARI //" *Ekonomika i turizm*" mejdunarodnyy nauchno-innovatsionnoy jurnal. – 2023. – Т. 2. – №. 10.

Muassislar:
Buxoro davlat universiteti
“Economic science” mas’uliyati cheklangan jamiyati

<p>"IQTISODIYOT VA TURIZM" xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali</p> <p>2024-yil 1-son (15)</p> <p>2021-yildan chiqa boshlagan.</p> <p>OBUNA INDEKSI: 200117</p> <p>Manzil: Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy, 2-bino, 403-xona.</p>	<p>ilmiy va innovatsion nashri</p> <p>Jurnal oliy o'quv yurtlarining professor- o'qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o'qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo'ljallangan.</p> <p>Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.</p> <p>Nashr uchun mas'ul: Gavhar XIDIROVA Muharrir: Navruz-Zoda Baxtiyor Negmatovich</p>	<p>Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.</p> <p>Bosishga ruxsat etildi 10.02.2024 Bosmaxonaga topshirish vaqti 26.02.2024 Qog'oz bichimi: 60x84. 1/8 Tezkor bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog'i – 14,5 Adadi – 100 nusxa Buyurtma №65. Bahosi kelishilgan narxda.</p> <p>“Sadridin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Buxoro shahri M.Iqbol ko'chasi 11-uy.</p>
---	--	--